

## OT SO‘Z TURKUMINING O‘ZBEK VA INGLIZ GRAMMATIKALARIDAGI O‘RNI

**Atiyazov Saparbay Jumamuratovich,**  
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika  
institut, o‘zbek tili kafedrasida o‘qituvchisi

**Anottatsiya:** Ot so‘z turkumining o‘zbek va ingliz tili grammatikalarida o‘xshash va farqli tomonlari mavjud. Birlik va ko‘plik jihatdan bu ikki tilda ham o‘xshashlik bor. So‘roqlari va gapdagi vazifasi ham o‘xshaydi.

**Kalit so‘zlar:** shaxs, narsa nomi, jamlovchi, atoqli, turdosh, mavhum ot, sodda qo‘shma, juft, takroriy otlar, birlik, ko‘plik.

**Anotation:** There are similarities and differences in the grammar of nouns in Uzbek and English. There is also similarity in singular and plural. The function of interrogatives and sentences is similar.

**Key words:** person, noun, collective, superlative, relative, abstract, simple, compound, pair, repetition, singular, plural.

Shaxs-narsa, joy, voqea-hodisaning nomini bildirgan so‘zlar ot so‘z turkumi deyiladi. Ular kim?, nima?, qayer? So‘roqlariga javob bo‘ladi. Ingliz tilida ham xuddi shunaqa nom bildiradi va xuddi shunday so‘roqlarga javob boladi. Otlar ma‘no va grammatik xususiyatiga ko‘ra o‘zbek tilida 2 turga: atoqli va turdosh otlarga bo‘linadi.

Biror bir joy shaxs va narsaga atab qo‘yilgan otlar **atoqli otlar** deyiladi. Masalan, *Toshkent, Dilnoza, Chilonzor, Orol dengizi, Olapar* va boshqalar.

Bir turdagi shaxs, narsa, o‘rin-joy, faoliyat-jarayon kabilarning umumiy nomlarini bildiruvchi otlar **turdosh otlar** deyiladi.

Ingliz tilida ham atoqli va turdosh otlar mavjud bo‘lib, ular **proper nouns** (atoqli otlar) **common nouns** (turdosh otlar) deb ataladi. Example: **proper nouns** (ism-familiyalar: *Winston Churchill, Marilyn Monroe*; kitob, asar nomlari: *War and Peace, Tristan and Isolde, the Koran*; oy, fasl nomlari: *October, January, August* va h.k. Turdosh otlar birlik va ko‘plik shakllarida qo‘llanila oladi: uy-uylar, bola-bolalar, daraxt-daraxtlar. Ingliz tilida ham xuddi shunaqa bunda otlarga *s, es* qo‘shimchalari qo‘llaniladi. Example: *wolf-wolves, book-books, two dogs, ten horses*. Turdosh otlar ifodalagan tushunchaning xususiyatiga ko‘ra, aniq va mavhum otlarga bo‘linadi.

Bevosita ko‘rish, sanash mumkin bo‘lgan jonli va jonsiz otlar **aniq otlar** deyiladi: qalam, o‘yinchoq, ko‘ylak, cho‘mich va h.k. Bunday otlar sanoq sonlar bilan sintaktik munosabatga kirisha oladi: beshta qalam, uchta mushuk, ikkita ot kabi.

Shuningdek, aniq otlar erkalash va kichraytirish hamda ko‘plik qo‘shimchalarini qabul qila oladi: kitobcha, qizaloq, bolalar, uylar kabi.

Mavhum tushuncha, belgi, xususiyat va holatni bildiruvchi otlar **mavhum otlar** deyiladi. Mavhum otlar ko‘plik shaklida qo‘llanmaydi: *sevinch, muhabbat, nafrat, shodlik, do‘stlik* kabi. Ular ko‘plik shakli bilan qo‘llanganda grammatik ko‘plik emas, uslubiy ma’no bildiradi: *Quvonchlarim yaproq misol to‘kildi*.

Ingliz tilida ham mavhum otlar tushunchasi mavjud. Ular ham xuddi o‘zbek tilidagidek ma’no anglatadi. Ular ingliz tilida **Abstract nouns** deb ataladi. Example: *accomodation, Advice, Beauty, childhood, hospitality*.

Otlar tuzilishiga ko‘ra o‘zbek tilida 4 ga bo‘linadi: sodda, qo‘shma, juft va takroriy otlar.

Faqat bitta asosdan tarkib topgan otlar **sodda otlar** deyiladi. Masalan: *gul, kitob, bog‘bon, do‘st, oila* kabi.

Kompozitsiya usuli bilan yasalgan, birdan ortiq asosdan tarkib topgan otlar **qo‘shma otlar** deyiladi. Masalan: *qorbo‘ron, qo‘ziqorin, tokqaychi, taklifnoma* kabi.

Bir-biriga yaqin yoki qarama-qarshi ma’noli asoslardan tarkib topgan otlar **juft otlar** deyiladi. Masalan: *ota-ona, aka-uka, katta-kichik, yosh-qari* kabi.

Ikkinchi qismi birinchi qismining tovush o‘zgarishi asosidagi takroridan tarkib topgan otlar **takroriy otlar** deyiladi. Masalan: *tuz-puz, tovoq-povoq, mol-hol* kabi.

Ingliz tilida **sodda va qo‘shma otlar** ga bo‘linadi. Sodda otlar xuddi o‘zbek tilidagi sodda otlar grammatikasi bilan bir xilda bo‘ladi ya’ni ingliz tilidagi turdosh otlar yuqorida aytganimizdek. Qo‘shma otlarga keladigan bo‘lsak, ular **compound nouns** deb ataladi. Inliz tilida qo‘shma otlarning birinchisi aniqlovchi, ikkinchisi esa asosiy otdir. Ularni ko‘plikka aylantirish uchun ikkinchisiga ko‘plik shakli beriladi. Example: *police man - police men; boy friend- boy friends, dining table-dining tables*. Otlar predlogli bo‘lsa, ko‘plik shakli predlogdan oldin beriladi: *sister-in-law - sisters-in-law; hanger-on- hangers-on; looker-on -lookers-on*. Qisqartmalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘plikka aylantiramiz: *MP-MPs; OAP-OAPs, UFO-UFOs*.

Ingliz tili grammatikasida jamlovchi otlar ham mavjud bo‘lib, ular **collective nouns** deb ataladi. **Collective nouns**- bir guruh kishilarini o‘z ichiga olgan otlarga aytiladi. Example: *family, organization, jury*. Jamlovchi otlar ikki turga bo‘linadi: Quyidagi jamlovchi otlar ma’nosiga ko‘ra kesimning birlik yoki ko‘plik shakli tanlanadi. Agar shunchaki o‘z ma’nosida tushunilsa, ya’ni umumiy ma’lumot berilsa, birlik kesim ishlatiladi. Agar ichidagi kishilar harakati alohida alohida tushunilsa, ko‘plik kesim ishlatiladi. Example: *group, staff, government, audience*.

Quyidagi jamlovchi otlar doim ko‘plik deb tushunilib ular bilan doim ko‘plik kesim ishlatiladi. Ularning deyarli hammasi sifatdan ot ma‘nosiga ko‘chganlardir. Example: *the poor, the rich, the unemployed, the wounded*.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, har ikki tilda ot so‘z turkumi haqida umumiy ma‘lumotlar shulardan iborat.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U.Tursunov, N.Muxtorov, Sh.Rahmatullaev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1992 yil.
2. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. I qism. II qism. Toshkent. «O‘qituvchi» nashriyoti. 1980 yil
3. Bo‘ronov J, Bo‘ronova M, Tashbayeva M “Ingliz tili grammatikasi”. Toshkent – 1978 yil
4. Gordan E. M., Krilova I. P., “F grammar of present – slay English”. Moskov 1984 y
5. Barxudarov L. S, Shteling D. A, “Grammatika angliyskogo yazika”. 1973 g
6. Yusupova, G. A., Khudayarova, M. T., Buranova, S. M., Atiyazov, S. J., & Allanazarova, A. (2021). Formation of linguistic competencies in the uzbek language in future teachers. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 335-341.
7. Usanova, Q., & Xudayarova, M. (2023). O ‘ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA OTLARNING KELISHIK KATEGORIYALARINING QIYOSIY TADQIQI. *Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук*, 3(6), 54-56.
8. Xudayarova, M., & Usanova, Q. (2023). “BOBURNOMA”–TARIXIY MANBA SIFATIDA. *Академические исследования в современной науке*, 2(4), 24-27.
9. Худаярова, М. Т., Буранова, Ш. М., Юсупова, Г. А., & Сапарова, А. З. (2021). Қорақалпоғистон Худудида Яшовчи Туркий Халқлар Тилидаги Таом Номларининг Лексик Қатламлари. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(5), 25-32.
10. Xudayarova, M. (2020). Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalaridagi taom nomlarining o‘ziga xos xususiyatlari. *TDPU ILMIY AXBOROTLARI*.
11. Tajimuratovna, X. M. (2024). QORAQALPOG ‘ISTON HUDUDIDAGI EKKLEZIONIMLARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 2(3), 179-183.
12. Usanova, Q., & Xudayarova, M. (2024). O‘ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA FE‘L SO ‘Z TURKUMI. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 4(3), 25-27.